

## Qo'lingdagi vaqt

Har kim vaqt hagida o'zining shaxsiy tasavvurlariga ega. Biz bugun "Bo'sh vaqt" hamda "Fursat" to'g'risida yuritamiz.

So'ziming avvalida e'tiboringizni shoir Bahouddin Naqshbandining ajoyib to'rtligiga qarataman.

Garchi piyodamiz, garchi otliqmiz,  
Kim yaxshi, kim esa yomonotliqmiz.  
Qanchalar fursatni o'tkazdik zoye,  
Allohning oldida yomonotliqmiz.

Miqdori ko'p narsa qadr-qiyimatini tez yo'qotadi. Har bir musulmon uchun vaqt eng qimmat tushunchadir. Ammo aql egalari uchun vaqt hech qachon qadrsizlanmaydi. Eng yaxshi vaqt, hayotini manfaatli ishlar bilan to'ldirgan odamdir.

Kishilarning o'zaro muomalalarida "Bo'sh vaqt" degan tez-tez yilga olinadi. Kimdadir bo'sh vaqtning paydo bo'lishi , uning yashashdan to'xtaganligidan nishona.

Hasan Basriy harakatlari shunday degan ekanlar:"Ey odam bolasi sen tashkil topgan kunlardan iboratsan sen uchun bir kuning ketishi, umrnig bir qismi ketishi dekmakdir" . Behuda o'tgan vaqtingizni hech hisoblab chiqqanmisiz. Keling diqqatingizni quyidagi raqamlarga qarating: Kishi o'ratacha 1sutkada 4-6 soat, 1 haftada 28-42 soat, 1 oyda 112-168 soat 1 yilda esa 1344-2016 soat vaqtini ko'kkasovurar ekan. Shu vaqtlar bilan til o'ragnish vaqtini solishtiradigan bo'lsak, ingliz tilida mustaqil gapira olish uchun 900-1100 soat sarflash kifoya ekan. Shunday ekan yuqorida faktlar bizni ogohlikka chorlashi zarur. Biz hamisha o'zimizni "Hali vaqt bor", "Ulgiraman", "Vaqt keladi" degan taskinlar bilan aldaymiz.

Yaqinga bir ustozimizdan oddiy haqiqatni eshitgandim. Buyuk olim-u fuzalolarda ham, mashhur boylarda ham, oddiy insonlarda ham bir kunlik vaqt 24 soatni tashkil etgan. Endi o'zimizga savol beraylik nega biz ulgura olmaymiz? Nima uchun ular kabi harakat qila olmaymiz ? Gap shundaki o'z kelajagimiz haqida qiziqmaymiz, qayg'urmaymiz .Ular esa " Bugun sen harakat qilmasang , ertaga harakat qilganlar qo'lida ishlaysan" degan achchiq haqiqatga amal qilishgan.

Fursat nima ?

Fusat ma'lum vaqt oralig'dagi muddat. Fursat vaqt kabi juda tez daraja va shiddatli kechadi. Uning kasbiy faoliyati doirasida, jumladan har bir sohada, tibbiyotda, axborot xizmatida, siyosat olamida, qimmatli qog'ozlar bozorida, qolaversa, inson taqdirini hal etishda ham muhim ko'rsatkichdir.

Yodingizda bo'lsa oynayi jahon orqali efirlarga uzatilgan "Kaminaning oilasi" teleserialida shunday kadr bor: Bir yigitdan so'rashadi

-Siz kimsiz?

-Men brokerman  
-Broker?  
-Broker bu dalol, vositachi  
-Broker uchun nima muhim?  
-Fursat. Tovar kim birinchi bo'lib egalik qilsa uniki. Demak, fursat bu – pul, deya javob qaytaradi.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, sen vaqtga nimani bersang, vaqt ham senga shuni qaytaradi.

JDPI II bosqich talabasi  
Ikramova Aziza